

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Yoshlar ma'naviy tarbiyasida tizimli yondashuvning zamonaviy asoslari

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

S.S.Qulmurodova

Аннотация: Уибу мақолада миллийлик, мағкура, маънавият ҳалқ, ёшилар, одоб-аҳлоқ, жасамият, маҳалла, таълим-тарбия, жамоа, оила, орзу, мақсад, тизимлилик ҳақида сўз боради

Annotation: National, ideology, people, manners, society, neighbourhood, education, team, family, dream, goal, concept.

Аннотация: В статье рассматриваются национальность, идеология, люди, морал, общество, семья, мечта, сел, систематичность

Bugungi kunda mamlakatimiz oldida turgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy vazifalarni hal etishda ta'lim muassasalarida iarbiya olayotgan talabalarni, ma'naviy dunyo qarashini boyitish va rivojlantirish muammolariga alohida e'tibor berish davr talabidir. Hozirda ko'plab davlatlar maktabalarida boshlang'ich sinflardanoq kompyuter savodxonligini chiqarishga oid fanlar kiritilmoqda. Zero, bu zamon talabiga aylanmoqda. Farzandi ushbu soha yoki unga uyg'un kasbda ishlashini niyat qilgan ota-onasi va ustozlar raqamli olam saboqlarini bolalar tezda o'zlashtirib olishlari uchun ularga imkon qadar sharaoitlarni yaratib bermoqda. Aslidachi bunda o'zlashritirishlarni qizishlarni shakllantirish uchun ma'lum yosh belgilanganmi? –degan savol turadi oldimizda?

Ta'kidlash kerakki, mustaqillik yillarida o'zbek xalqining ma'naviy va tarixiy qadriyatlari, buyuk ajdodlar meros, olimlar va mutafakirlarning kashfiyotlari jahon merosiga kiritilib ulardan ta'lim jarayonida ma'naviy boylik sifatida foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. O'zbek davlatining asl tarixini tiklash, milliy urf-odatlar, milliy madaniyatni tiklash, milliy tillarni rivojlantirish-bularning barchasi mustaqil Vatanimiz xalqlarining yangi ma'naviy hayoti bilan chambarchas

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bog‘liq. Yoshlarni ma’naviy dunyo qarashini boyitish unda tarixiy allomalarini buyuk kashfiyotlari hamda ixtirolari asosida milliyo madaniyatni shakllantirish bugungi kunda ustivor vazifalardan bioi sifatida e’tirof etilmoqda. Davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga sifatida ma’naviy va marifiy sohadagi amaliy ishlar ko‘lamini kengaytirish yangi nazariy g‘oyalari va mafkuralar ishlab chiqilishini taqozo etmoqda. Bugungi kunda ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat yo‘nalishida Respublikamizda olib borilayotgan keng qamrovli ishlarni asarda tizimli tarzda olib borish maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan. Bu haqda “ Ma’naviyat haqida har qancha da’vatlar, muhim nazariy fikrlar bildirilmasin, agar ularni jamiyat ongiga singdirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu boradagi faoliyatimizni har tomonlama puxta o‘ylangan tizimli ravishda tashkil etmasak, tabiiyki, biz ko‘zlagan maqsadga erisha olmaymiz, ya’ni inson qalbiga yo‘l topa olmaymiz ”, - deb ta’kidlangan.

Ayni vaqtda Respublikamizda ma’naviy va ma’rifiy yo‘nalishda olib borilayotgan nazariy va amaliy ishlarda buyuk mutaffakirlarimiz, allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning hayoti, ijodi va buyuk kashfiyotlaridan ma’naviy olamga, milliy qadriyatlarga, an’analarga va urf-odatlarga boy materiallarni, mustaqillik yillarida erishilgan muvaffaqiyatlarimiz bilan uyg‘unlashtirilgan holda tizimli tarzda amalga oshirish masalasi ko‘rib chiqilmagan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, buyuk mutafakkirlarimiz, allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning hayoti, ijodi va buyuk kashfiyotlaridan olingan ma’naviyat olamiga, milliy qadriyatlarga, an’analarga va urf-odatlarga boy materiallarni mustaqillik yillarida erishilgan muvaffaqiyatlarimiz bilan uyg‘unlashtirilgan holda tizimli yondashuv asosida hayotga tatbiq etish masalasi dolzabdir. Aynan ana shu fikr-mulohazalarga asoslanib, tarixiy shaxslarimizning eng buyuk namoyondalari timsolida ma’rifat, ilm-fan, madaniyat kabi sohalarning barchasini o‘zida umumlashtirgan xalqimizning ma’naviy olamini aks ettiruvchi ma’lumotlarni, mustaqillik yillarida erishilgan muvaffaqiyatlarimiz bilan uyg‘unlashtirilgan ko‘rinishdagi materiallarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun(1-4-sinf) moslashtirilgan holda berilishi ularning ma’naviy dunyoqarashini kengaytirishga olib keladi deb uylaymiz. Xuddi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

shunday boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan ma’lumotlarni mantiqiy davom ettirib, ularni yuqori sinf o‘quvchilari uchun moslashtirish lozim va yuqori sinf o‘quvchilari uchun berilayotgan ma’lumotlarni davom ettirib, ularni akademik litsey va kasb ta’lim, undan keyin, oliv ta’lim talabalri uchun moslashrish maqsadga muvoffiq tarzda amalaga oshiriladi.

Shu bois yuqorida qayd etilgan ma’lumotlarni virtual lavhalar ko‘rinishida ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu esa axborot texnologiyalarining multimedia va dasturiy vositalari hamda pedagogik texnologilarni shaxsga yo‘naltirilgan tamoyillari asosida matn ko‘rinishida berilayotgan lavhalarning imitatsion modellarini yaratish orqali matnda aks ettirilgan materiallarning mazmun - mohiyatini ochib berishga imkoniyat yaratiladi. Imitatsion modellar yordamida lavhalarda aks ettirilgan ma’lumotlarni harakat, animatsiya, ovoz va turfa ko‘rinishdagi ranglar orqali ularning mazmun, mohiyatini ochib berish bilan bir qatorda, ularda yashiringan, ko‘z ilg‘amaydigan ma’lumotlarni ko‘rsatish imkoniyati mavjud. Bu esa o‘z navbatida imitatsion modellarda aks ettirilgan ma’lumotlar bo‘yicha fikr-mulohaza yuritish va xulosa chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shu bois har bir ijodiy guruh tarkibiga axborot texnologiyalari sohasidagi tajribali mutaxassislar kiritilishi ham maqsadga muvofiq.

Misol tariqasida buyuk mutafakkir va allomalarimiz, aziz-avliyolarimiz hayoti va ijodi hamda ilmiy kashfiyotlariga doir imitatsion modellar yaratishga Abu Rayxon Beruniyning ilmiy kashfiyotlaridan biri, ya’ni suv to‘ldirilgan idish ichiga tushirilgan jism o‘zining hajmiga teng suyuqlik siqib chiqaradi, deb e’tirof etgan ilmiy kashfiyotining imitatsion modelini yaratish mumkin. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarga imitatsion modellar yordamida alloma Abu Rayxon Beruniyning ilmiy kashfiyoti to‘g‘risida to‘liq tushuncha olishga asos bo‘ladi. Xuddi shunday boshqa ulug‘ allomalarimiz va aziz-avliyolarimiz hayoti, ijodi va ilmiy kashfiyotlarining imitatsion modellarini yaratib, ularni virtual lavhalar ko‘rinishida hayotga tatbiq etish mumkin.

Virtual lavhalar yordamida she’rning mazmunida ifoda etilgan fikrlarni yanada tushunaliroq tarzda ko‘rsatish imkoniyati mavjud. Bunday ko‘rinishdagi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

virtual lavhalarnning afzallik tomonlari shundan iboratki, ular yordamida katta yoshdagi insonlarga mo‘ljallangan materiallarni kichik yoshdagi o‘quvchilarga ham ko‘rsatish va tushuntirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ta’lim va innavasion tadqiqotlar (2021 yil №6) Oliy ta’lim tizimida talaba yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash texnologiyalari.Ziyayeva M.F,AbduvahobovaD.E,HazratqulovaA.B.
 2. Abu Rayhan Beruni. Book of knowledge about precious gems (Mineralogy). Translator academician A. Qayumov. - T.: 2017. - B.195.
- 3.Hoshimov K., Nishnova S., Inomova M. History of pedagogy. Tashkent "Teacher", 1996, page 84